

ISSUES OF IMPROVING CERTAIN LEGISLATIVE ACTS ON CUSTOMS

Uzoqov Alisher Abduraimovich

*Customs Institute, Department of Special Disciplines, Senior Lecturer Republic of Uzbekistan,
Tashkent*

Abstract: *This article analyzes the advanced practices of customs systems in Germany, Singapore, South Korea, and the USA, highlighting their role in digitalization, risk management, and simplification of customs administration. Based on foreign models, specific proposals and recommendations have been developed to improve Uzbekistan's customs legislation.*

Keywords: *customs system, legislation, digitalization, risk management, Singapore experience, Germany ATLAS, UNI-PASS, C-TPAT, foreign trade*

BOJXONA TO'G'RISIDAGI AYRIM QONUNCHILIK HUJJATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Uzoqov Alisher Abduraimovich,

*Bojxona instituti Maxsus fanlar kafedrası katta o'qituvchisi O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent sh.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya va AQSH bojxona tizimlarining ilg'or amaliyoti tahlil qilinadi, ularning raqamlashtirish, xavflarni boshqarish va bojxona ma'murchiligini soddalashtirishdagi o'rni yoritiladi. O'zbekiston bojxona qonunchiligini takomillashtirish uchun xorijiy modellar asosida aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *bojxona tizimi, qonunchilik, raqamlashtirish, xavflarni boshqarish, Singapur tajribasi, Germaniya ATLAS, UNI-PASS, C-TPAT, tashqi savdo.*

Bojxona tizimi mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi, xavfsizligini ta'minlovchi hamda davlat byudjetiga bojxona to'lovlarini to'liq tushirilishini nazorat qiluvchi muhim institut hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda global savdo jarayonlari, logistika zanjirlari va raqamli iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanishi bojxona qonunchiligini doimiy ravishda takomillashtirishni talab etadi.

Xorijiy davlatlarning bojxona sohasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish milliy qonunchilikni yanada samarali qilish, bojxona ma'murchiligini soddalashtirish va xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Ushbu maqolada bojxona qonunchiligini takomillashtirishda Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya va AQSH tajribalari tahlil qilinadi hamda O'zbekiston qonunchiligi uchun aniq takliflarni ilgari suriladi.

Bojxona qonunchiligini takomillashtirish quyidagi omillarga asoslanadi:

Savdo jarayonlarini tezlashtirish – tovar aylanmasini optimallashtirish va ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish;

Xavflarni boshqarish tizimi – yuqori xavfli operatsiyalarni tanlab tekshirish, xavfi past tovarlar uchun esa tezkor rasmiylashtirish;

Raqamli bojxona – elektron deklaratsiya, avtomatlashtirilgan tahlil, blokcheyn texnologiyalari;

Integratsiya va xalqaro standartizatsiya – Jahon Bojxona Tashkiloti (JBT) konvensiyalari va yo‘riqnomalariga muvofiq lashtirish.

Bu omillarni milliy huquqiy bazada to‘g‘ri ifoda etish mamlakat tashqi savdo tizimi samaradorligini belgilaydi.

Bojxona sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida bojxona tizimi rivojlangan Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya va AQSH mamlakatlari tajribalari tahlil qilindi.

Germaniya bojxona ma‘murchiligi Yevropadagi eng samarali tizimlardan biri bo‘lib, uning asosiy ustunligi ATLAS axborot tizimi orqali to‘liq raqamlashtirilgan bojxona operatsiyalarida namoyon bo‘ladi. ATLAS platformasi eksport-import jarayonlari, tranzit nazorati, soliq va yig‘imlarni hisoblash kabi vazifalarni avtomatlashtirgan holda biznes va davlat o‘rtasidagi ortiqcha qog‘ozbozlikni minimal darajaga tushiradi. Germaniyada xavflarni boshqarish tizimi to‘liq elektron algoritmlar asosida amal qiladi: tovarlar xavf darajasiga ko‘ra avtomat ajratiladi, xavfsiz tovarlar esa jismoniy tekshiruvdan o‘tmasdan rasmiylashtiriladi.

Vakolatli iqtisodiy operator (AEO – Authorized Economic Operator) maqomini joriy etish bojxona tizimining yana bir kuchli tomoni bo‘lib, ushbu maqomga ega kompaniyalar tezkor, ishonchli va kamroq tekshiruv bilan bojxonadan o‘tish imkoniyatiga ega. Germaniya bojxonasi logistika operatorlari, portlar va temir yo‘l tizimi bilan raqamli integratsiyani keng yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, konteyner harakati real vaqtda monitoring qilinadi. Korrupsiyaning oldini olish maqsadida bojxona xodimlari faoliyati to‘liq elektron kuzatuvda, qarorlar avtomat tarzda qayd etiladi.

Singapur dunyodagi eng tezkor va samarali bojxona tizimlaridan birini shakllantirgan. TradeNet platformasi mamlakatdagi barcha eksport-import jarayonlarini yagona elektron portal orqali bir necha daqiqa ichida amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur platforma davlat idoralari, bojxona organlari va xususiy sektor o‘rtasida to‘liq integratsiyalangan bo‘lib, 10 daqiqa ichida deklaratsiyani tasdiqlash amaliyoti Singapurning asosiy innovatsion yutug‘idir.

Singapurda xavflarni boshqarish to‘liq avtomatlashtirilgan: sun‘iy intellekt orqali deklaratsiyalar tahlil qilinadi, yuqori xavfli tovarlarga jismoniy tekshiruvdan o‘tkaziladi. Bu esa tekshiruvlar ulushini 5%dan oshirmaslikka imkon beradi. Singapurning “bir darcha” (“single window”) modeli bojxona jarayonlarida shaffoflik, minimal korrupsiya va barqaror logistika tizimini ta‘minlaydi.

Janubiy Koreyaning UNI-PASS tizimi jahondagi eng rivojlangan bojxona axborot tizimlaridan biri hisoblanadi. U bojxona jarayonlarining deyarli barcha bosqichlarini

qamrab olgan: deklaratsiyalarni qabul qilish, soliqlarni avtomat hisoblash, xavf darajasini baholash, inspeksiya natijalarini qayd etish va post-bojxona nazoratini yuritish. Tizim sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida ishlaydi.

Koreya tajribasining muhim jihati — elektron monitoring va transparentlikdir. Tovarlarining logistika zanjiridagi harakati, chegaradan o'tish vaqti, to'lovlarning tushumini real vaqtda kuzatish mumkin. Bundan tashqari, eksportchi va importchi kompaniyalar reyting tizimi orqali baholanadi, ishonchli shirkatlar uchun bojxona protseduralari sezilarli ravishda soddalashtiriladi.

AQSH bojxona xizmati (CBP) xavflarni boshqarishning ilg'or va murakkab modelini qo'llaydi. C-TPAT dasturi — xalqaro savdo ishtirokchilari bilan ixtiyoriy hamkorlik dasturi bo'lib, unga qo'shilgan kompaniyalar xavfsizlik standartlariga rioya qilgan holda tezkor va yengillashtirilgan bojxona amaliyotlaridan foydalanadi. Bu biznes uchun katta ustunlik yaratadi.

AQSHda deklaratsiyalarning aksariyati elektron tarzda qabul qilinib, xavf tahlili sun'iy intellekt va prognozlash algoritmlari asosida amalga oshiriladi. Pre-Arrival Processing tizimi orqali tovarlar hali port yoki chegaraga yetmasdan turib tekshiruvdan o'tkaziladi, bu esa logistika tezligini oshiradi. Chegaralarda yuqori texnologiyali skanerlar, radiologik nazorat va biometrik tizimlar keng qo'llaniladi.

Xalqaro tajribalar asosida bojxona tizimida raqamlashtirish darajasi bo'yicha taqqoslash tahlil

Davlat	Raqamlashtirish darajasi	Elektron deklaratsiya ulushi	Xavfni boshqarish modeli
Germaniya	juda yuqori	90–95%	avtomatlashgan, sun'iy intellekt asosida
Singapur	eng yuqori	98–100%	to'liq avtomatlashgan
Janubiy Koreya	juda yuqori	95%+	intellektual tahlil
AQSH	yuqori	85–90%	kompleks xavf tizimi
Davlat	raqamlashtirish darajasi	elektron deklaratsiya ulushi	xavfni boshqarish modeli

O'zbekiston bojxona qonunchiligini takomillashtirish jarayonida Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya va AQSH kabi ilg'or bojxona tizimlarining tajribalarini o'rganish va ularning eng samarali mexanizmlarini milliy huquqiy bazaga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron deklaratsiya bojxona ma'murchiligining zamonaviy asosi hisoblanadi. Germaniyaning ATLAS, Koreyaning UNI-PASS va Singapurning TradeNet platformalaridagi kabi to'liq raqamlashgan va integratsiyalashgan tizimni joriy etish O'zbekistonda deklaratsiya jarayonlarining samaradorligini sezilarli oshiradi.

Ayni paytda O'zbekistonda bojxona xodimi tomoelektron deklaratsiya ulushi 70% atrofida bo'lib, uni 95–100% darajaga yetkazish quyidagi afzalliklarni beradi:

- deklaratsiyalarni ko'rib chiqish vaqti sezilarli qisqaradi;
- inson omili kamayadi, bu esa korrupsiya xavfini minimallashtiradi;
- xavf darajalari avtomatik ravishda baholanadi va tezkor qaror qabul qilinadi;

- soliq va to'lovlar avtomat hisoblanadi.

Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron ma'lumotlarni davlat idoralari o'rtasida integratsiya qilish orqali bojxona organlari tadbirkorlardan ortiqcha hujjat talab qilmaydi. O'zbekistonda ham elektron hujjat almashinuvining yagona platformasini yaratish va xususiy sektor bilan bog'liq ma'lumotlarni avtomat tarzda yig'ish amaliyotni yengillashtiradi.

Singapur, Germaniya va AQSH tajribasi xavfni boshqarishning to'liq avtomatlashgan tizimi bojxona faoliyatining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. O'zbekistonda xavflarni baholash jarayoni bosqichma-bosqich takomillashib boryapgan bo'lsa-da, uni sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili bilan boyitish zarur.

Avtomatlashgan xavf tahlil tizimi quyidagi funksiyalarni bajarishi lozim:

- har bir deklaratsiya uchun xavf profilini avtomat hisoblash;
- tovar, kompaniya va logistika yo'nalishlari bo'yicha xavfni prognozlash;
- noqonuniy harakatlarni oldindan aniqlash;
- past xavfli tovarlar uchun to'liq avtomat chiqarish (auto-release)ni joriy etish.

AQSHning C-TPAT dasturida xavfsizlik standartlariga rioya qiluvchi kompaniyalarga yengillashtirilgan rejim berilishi O'zbekiston uchun ham o'rnak bo'lishi mumkin. Bu tadbirkorlar uchun rag'bat va bojxona uchun resurslarni tejash manbai bo'ladi.

Xorijiy tajriba asosida bojxona tekshiruvlarining asosiy qismi yakunlangan operatsiyalardan keyin auditorlik shaklida amalga oshiriladi. Germaniya va Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, post-bojxona nazorati joriy etish orqali chegarada yuzaga keladigan tirbandlik, hujjat tekshiruvlari va byurokratik kechikishlar kamayadi.

O'zbekistonda post-nazoratni quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish tavsiya etiladi:

- yirik importyochi va eksportyor korxonalar uchun maxsus audit standartlari ishlab chiqish;
- avtomat monitoring orqali xatarli operatsiyalarni saralash;
- soliq va yig'imlarni qayta hisoblashni raqamli platformaga o'tkazish;
- auditorlik tekshiruvlarini xalqaro ISO standartlariga muvofiqlashtirish.

Elektron hisobotlar va nazoratning avtomatlashuvi tadbirkorlarning xarajatlarini kamaytiradi va biznes muhitini yaxshilaydi.

O'zbekiston tashqi savdosi jadal o'sib borayotgan bir paytda bojxona qonunchiligini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Reviziya qilingan Kioto Konvensiyasi, Jahon Savdo Tashkilotining savdoni yengillashtirish to'g'risidagi qoidalari va Eksport nazorati standartlari bunda asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

Xalqaro integratsiyani kengaytirish quyidagilarni ta'minlaydi:

- boshqa davlatlar bilan elektron ma'lumot almashinuvi;
- tranzit operatsiyalarini tezlashtirish;
- chegara nazoratida raqamli integratsiya orqali tezkorlik;
- bir xil talabi va standartlari bo'lgan yagona bojxona makonini yaratish.

Bojxona qonunchiligiga kiritilayotgan quyidagi taklif va tavsiyalar:

Bojxona kodeksiga raqamli transformatsiyani aks ettiruvchi alohida bob kiritish;

1. Bojxona tekshiruvlarini 25% dan 10–12% gacha kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish.

2. Elektron deklaratsiyani 95% va undan yuqori darajada ta'minlash.

3. Xavflarni avtomat baholash tizimini sun'iy intellekt asosida modernizatsiya qilish.

4. Davlat va biznes o'rtasida "Hamkorlikda xavfsizlik" dasturini yo'lga qo'yish.

5. Xalqaro standartlar asosida bojxona auditini rivojlantirish.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlar tajribasida bojxona ma'murchiligini soddalashtirish, xavflarni samarali boshqarish va raqamlashtirish asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi tashqi iqtisodiy faoliyatda shaffoflikni oshirish, korrupsiyani kamaytirish va biznes uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. World Customs Organization. Revised Kyoto Convention Guidelines. (<https://www.wcoomd.org>)

2. Singapore Customs Annual Report. (<https://www.customs.gov.sg>)

3. German Customs (Zoll) Digitalization Strategy. (<https://www.zoll.de>)

4. Korea Customs Service. UNI-PASS Overview. (<https://unipass.customs.go.kr>)

5. U.S. Customs and Border Protection. C-TPAT Program Guide. (<https://www.cbp.gov>)

6. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. (<https://lex.uz>)

7. Xalqaro biznes va bojxona ma'murchiligi jurnali maqolalari. (<https://www.sciencedirect.com>)

8. World Customs Organization. Revised Kyoto Convention Guidelines.

9. Singapore Customs Annual Report.

10. German Customs (Zoll) Digitalization Strategy.

11. Korea Customs Service. UNI-PASS Overview.

12. U.S. Customs and Border Protection. C-TPAT Program Guide.

13. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi.

14. Xalqaro biznes va bojxona ma'murchiligi jurnali maqolalari.